

## BADIY MATNLARDA LINGVOPOETIK BIRLIKLER TAHLILI HAQIDA

**D.A.Allaberganova,**  
*E-mail: d.allaberganova@mail.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada lingvopoetik birliklar haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, ijodkorlarning bunday birliklardan mohirlilik bilan foydalana bilishi, qo‘llash usuli tadqiq qilingan.

**Аннотация.** В данной статье говорится о лингвопоэтических единицах, умении создателей умело использовать такие единицы, изучается способ их употребления.

**Annotation.** This article talks about linguopoetic units, the ability of creators to skillfully use such units, the method of their use is studied.

**Kalit so‘zlar:** ritorika, poetika, stilistika, badiiy asar tahlili.

**Ключевые слова:** риторика, поэтика, стилистика, анализ художественного произведения.

Lingvopoetikaning tarixiy taraqqiyoti ritorika, poetika, stilistika, badiiy asar tili kabi sohalar bilan uzviy bog‘liqdir. Badiiy asar tiliga doir tadqiqotlar natijasida lingvopoetika tilshunoslikning yangi tarmog‘i sifatida yuzaga keldi. Bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar hozirgi davrda yangi lingvistik oqim bo‘lgan antroposentrik tilshunoslikning rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilmoqda.

O‘zbek tilshunoslida olib borilgan ishlarning ba’zilari lingvopoetikaning umumiy masalalariga<sup>1</sup>, ayrimlari muayyan ijodkor asarlari tiliga<sup>2</sup> aloqadordir.

O‘zbek tilshunoslida badiiy asar tili tahliliga bag‘ishlangan ko‘pgina ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, katta tarixga ega, mahoratli ijodkorlari va yetuk asarlari mavjud bo‘lgan o‘zbek badiiy adabiyoti tilini o‘rganishga bag‘ishlangan mavjud

<sup>1</sup> Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек тилининг лексик воситалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1994. №3. – 9 – 11 б.; Аҳмедов А. Бадиий асар тилини ўрганиш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1960. – №3; Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент: Ўздавнашр, 1962. – 173 б.; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2003. – 44 б.; Қурбонова М. Мустақиллик даври достонлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. фалсафа док. (PhD) автореф. – Фарғона, 2019. – 53 б.

<sup>2</sup> Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 24 б.; Сайидов Ё. Фитрат бадиий асарлари лексикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – Б.24; Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2004. – 23 б.; Сабирдинов А. Ойбекнинг поэтик маҳорати: Филол.фанлари. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 41 б.; Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 44 б.

tadqiqotlarni yetarli deb bo‘lmaydi. Lingvistik jihatdan o‘rganilishi lozim bo‘lgan ijodkorlar va ularning asarlari o‘zbek adabiyotida talaygina.

Ijodkorlar so‘z tanlash va uni nutqda qo‘llashda o‘ziga xos uslubda yondashadilar. U, avvalo, ifodalanmoqchi bo‘lgan fikrning mohiyatiga mos keladigan, ma’noni aniq, tushunarli tarzda ifoda etadigan, badiiy bo‘yoqdorlik xususiyatlari bilan alohida ajralib turadigan so‘zlarni tanlaydi va nutq mohiyatiga mos holda qo‘llashda namoyon bo‘ladi.

Lingvopoetik tahlilda shoir va yozuvchilarning tilimiz imkoniyatlari, uning nozik ma’no qirralarini namoyish eta olganligi, bu imkoniyatlar turli vositalar, jumladan, so‘zni mohirona qo‘llash, tilning turli sathlariga oid lisoniy birliklardan badiiy maqsadni amalga oshirish uchun foydalanishi va shu kabi boshqa usul hamda vositalar orqali poetik nutqning aktuallashtirilgani o‘ziga xos individual uslubni tanlaganidan dalolat beradi. Ushbu jihatlar badiiy so‘z san’atkorlarining o‘zbek she’riyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lishini ta’minlagani, shubhasiz.

Lingvopoetik tahlilda ijodkorlarning o‘zi yaratgan okkazional so‘zlarni, adabiy tilda muqobili bo‘lmagan sheva vositalarini faollashtirgani, ekzotik so‘zlarni qo‘llagani kabi jihatlar bilan hozirgi o‘zbek adabiy tilining boyishiga munosib hissa qo‘shganligi ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek tili lug‘aviy jihatdan boy leksik tarkibni qamrab olgan bo‘lib, keng iste’mol so‘zları, og‘zaki nutq vositalarining qo‘llanilishi jihatidan muhim lug‘aviy birliklar ekanligini e’tirof etish lozim. Tahlilga tortishda bu lug‘aviy vositalarning nafaqat ma’nolari, uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish, balki ularning xalqonalik belgilarini ham nazarda tutgan holda yondashadilar. Natijada bu vositalar orqali asarlarning tili xalq tiliga yaqinlashadi, asarning tushunarligini ta’minlanadi.

Adabiy til so‘z san’atkorlari tomonidan ishlangan til sifatida talqin qilinar ekan, bunda ijodkorlarning til taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi nazarda tutiladi. Leksik vositalarning lingvopoetik ifodalanishi badiiy-estetik qiymatining ayrichaligi bilan xarakterlanadi. Tahlil jarayonida lug‘aviy birliklarning shakliy, mazmuniy turlaridan, dialektizm, frazeologizmlar, tarixiy so‘zlar, shuningdek, onomastik birliklardan mohirona foydalana olish salohiyati bilan ajralib turadi. Ijodkor lug‘aviy birliklarning shakliy, mazmuniy turlarining lisoniy yoki nutqiy resursidan muayyan lisoniy birlikni tanlab qo‘llash orqali mazmunning eng nozik nuqtalari, lirk qahramonning ruhiyati kabilarni mohirona tasvirlashga erisha olishi mumkin.

Dialektizm va frazeologizmlardan lirk qahramonning milliy-mental, milliy-madaniy sifatlarini yorqin aks ettiruvchi vosita sifatida foydalanish samaralidir. Shevaga xos so‘zlar va iboralarning ushbu jihatlaridan unumli foydalanish bu birliklar asarlar tilini jonli, obrazli va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Onomastik birliklar vositasida o‘quvchida o‘z qahramonlari haqida ilk taassurot qoldira olish, shu orqali shaxsning ichki dunyosi, xarakteri, istak va harakatlarini,

narsa-buyumlarning esa turli xususiyatlarini ifodalash va shu tariqa nomlar vositasida poetik yuk olgan esda qolarli ko‘plab obrazlar yaratish mumkin.

She’riy asar hissiy-ta’siri kuchini oshirishda sintaktik vositalardan o‘rinli foydalaniladi. Badiiy matnda ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi shakllar badiiy asar qimmatini oshirishga xizmat qiladi. O‘xshatish, jonlantirish, takror, antiteza, sintaktik parallelizm orqali ta’kid, hayrat, buyruq kabi ma’nolar kuchaytirilib, tasvir teranligi va musiqiyligi ta’minlab beriladi.

O‘zbek tilida yozilgan asarlar lingvistik jihatdan serqirra, unda umumxalq tilida mavjud barcha lug‘aviy vositalarning muayyan uslubiy imkoniyatlarni yaratish maqsadida qo‘llanilgani ijodkorlarning tildan foydalanishda o‘ziga xos individuallikka ega ekanidan dalolat beradi.